

Dars maqsadi:

Talabalarga milliy mustaqillik ahamiyatini anglash,
mustamlaka davri ko'rguliklari,
istiqlol yo'lida jafokash xalqimiz ko'rsatgan matonat,

Yangi O'zbekistonning bunyod etilishida mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan mustaqil, xalqparvar siyosatning ahamiyati xususida ta'sirli ma'lumot va ko'nikmalar berish.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

Talabalarga milliy mustaqillikning ahamiyatini tushuntirish;

Ularda xalqimizning mustamlakalik yillaridagi hayoti haqida tasavvur paydo qilish;

Talabalarga mustaqillikning mohiyatini, qadrini uqtirish;

Mustaqillikni mustahkamlash uchun mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan siyosatning ahamiyati haqida bilimlar berish va zarur ko'nikmalarni shakllantirish.

3. Kutilayotgan natija:

- talabalar istibdod va istiqlolning farqini anglaydi;
- mustaqillikning qadrini tushunadi;

- mustaqillikni kundalik amaliy ishlar, fidoyilik, mas'uliyat bilan mustahkamlash zaruratini uqib oladi;

- Prezidentimizning Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lidagi xalqparvar siyosati to'g'risida ma'lumot va bilimlarga ega bo'ladi;

- islohotlarga daxldorlik, Vatan va millat taqdiri uchun javobgarlik, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilish ko'nikmalari shakllanadi.

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

 **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismining maqsadi – talabalarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Talabalarning kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda talabalar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda talabalarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.